

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

3-son (2021-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, № 3

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar shop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-soni guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinnbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alion Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shayimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ebragimov Xolbay Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zakirxo ja Abdusattarovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rareva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Dardihev Durdumurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otobek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	7
Azizxon PAXMONOV. K voprosu o proektnoi kulturete budushih uchiteliy	7
Hikmat BOBOMIRZAYEV, Sevara SUVONOVA. Yangi O'zbekistonni qurishda zamonaviy o'qituvechilaming o'rni	11
Mamat KADIROVA. Talabalarda iqtisodiy ko'nikmalami takomillashtirish asoslari	15
Aziza MIRZARAHIMOVA. Ukbunillarda ilmий dun'karashni shaklantiriш педагогик muammo sifatida	20
Nargiz MAHMUDOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini baholashda jahon tajribasi	25
Akram SOXIBOV. Putiсовершенствования механизмов применения интерактивных методов в педагогическом образовании	27
Cabsohat MURODOVA, Umida YAKUBOVA, Rasul IMOMQULOV. Boshshinch sinf ukbunillardarining bilimi faoliyatini rivoyjantirishiغا йўналтирилган ўкув vaziyatlardan foydalaniш	31
Safibullo ABDULLAYEV. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o'qituvechilami ergonomic faoliyatga tayyorlash	35
O'tkir HAZRATOV, Sevara SOLIBOYEVA. Amaliy mashg'ulotlarni o'tishda interfaol usullaming qo'llanishi samaradorligini baholash	41
Makhfuza RAKHMONOVA. Spiritual and moral heritage of the hadith scientists of the east	45
Shamsiddin HARZIEV, Gulnora SHAROPOVA. Vliyanie interaktivnoi igry na razvitiyu znanii studentov	49
Nigora RUZIKULOVA. O'quvchilaming o'quv materiallari bilan ishslash jarayonida "case-study" metodidan foydalanshing pedagogik va metodik imkoniyatlari	54
Gulnora JUMAYEVA. O'qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirishda innovatsion faoliyat	58
O'g'iloy SHUKUROVA. Talaba-yoshlami innovatsion faoliyatga yo'naltirishning uzlusizligini ta'minlash texnologiyasi	63
Mehrimiso KOYILJOVA. Pedagogicheskaya osnova zdorov'essozidaющей функции образования	67
Bog'dagul QARSHIYEVA. Turli mamlakatlarda bilingual ta'l'im berish va ular o'tasidagi farqlar (O'zbekiston, Rossiya, Germaniya misoldiha)	72
Bahodirjon SHERMUXAMMEDOV. Yoshlarga g'oyaviy tarbiya berishning mohiyati va vazifalari	78
Dilmurod UMURZOQOV, Nafisa JO'RAYEVA. Sharq mutafakkirlari asarlarida rahbarlik va boshqaruv muammolarining talqini	81
Gullola KURBANOVA. Oliy ta'l'im muassasalari iqtidorli talabalarning tadqiqotchilik salohiyati ahamiyati	83
Imatulla TO'XTAROV. O'zbek falsafasi: tariximiz kabi qadim, ma'nnaviyatimiz kabi teran	88
Ulfat MAHKAMOV, Dilafruz ISMOILOVA, Munisa MALIKOVA. Bo'lajak o'qituvechilami tarbiyaviy ishlarga tayyorlash	92
Manzura YULDASHEVA. Ajoddolar merosida oilaviy munosabatlar talqini	95
Mavjudi GULAMOVA, Ilhomjon SHUKUROV, Chori XAYRULLAYEV, Brel Anatoliy KUZMICHI. O'zbekistonda aholi salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlar, imkoniyatlar va sharoitlar. 98	98
Ikromjon TOSHOV. Yaponiyada mahalliy davlat hokimiyat organlarining hujjatlari ustidan sud nazoratini analga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari	101
Madina KARIMOVA. Talabalar o'quv faoliyatida o'zini o'zi boshqarishning shaxs xususiyatlariga bog'liqligi 106	106
Olimjon XOLOV. O'quvchi-yoshlardi aksiologik ong'i shakllantirishning tarixiy asoslari	109
Najmiddin BAKAYEV, Shahobiddin SHODIYEV, Nargiza BAXRIEVA. Maktabgacha yoshdag'i bolalami hissiy rivojlanishning dolzarbli	117
Dilnoza QODIROVA. Kichik maktab yoshi o'quvchilarida axloqiy-madanly sifatlarni shakllantirishning o'ziga xos psixologik jihatlari	121
Shoxruh SALIXOV, Timur SALIXOV. Ta'l'im jarayonida o'quvchilar bilish faolligini oshirishning psixologik xususiyatlari	124
Shahloha ULUG'JAVA, Rayima NEMATOVA. Tadbirkor ayollaming bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligining o'ziga xosligi	128
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	131
Gulnora BO'RONOVA. Umumiy o'rtalma ta'l'im maktabning boshlang'ich sinflarida "Robototexnika" to'garaklarini virtual didaktik vositalar yordamida tashkil etishning universal metodlari	131
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH.....	138
Ozoda TURSUNOVA. Umumiy o'rtalma ta'l'im maktablarining ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalansh 138	138
Dilnosa HAZAROVA. Assimilirovannye slova uzbeckogo jazyka i ikh vyrazhenie v slovach	143
Nargiza G'ULOMOVA. Alisher Navoiy ijodini o'rganishda mualliflik korpusini tuzishning afzalliklari	149

Dilnoza QODIROVA

Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHI O'QUVCHILARIDA AXLOQIY-MADANIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ushbu maqolada kichik maktab yoshi o'quvchilarida axloqiy-madaniy sifatlarni shakllantirish va bu orqali ularning bilim darajasini takomillashtirishning psixologik aspektlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: axloq, madaniy sifatlar, ma'naviyat, e'tiqod, xulq, motiv, individual tuzilish, bilish jarayonlari, iroda, konstruktiv xulq-atvor.

В этой статье дано о психологических аспектах формирования нравственных и культурных качеств у учащихся младшего школьного возраста и через это о повышении их уровня знаний.

Ключевые слова: нравственность, культурные атрибуты, духовность, поведение, мотивация, структура личности, процессы познания, воля, конструктивное поведение.

In this article, we will talk about the psychological aspects of the formation of moral and cultural qualities in junior school age students and through this, the improvement of their level of knowledge.

Key words: morality, cultural attributes, spirituality, behavior, motivation, individual structure, cognition processes, will, constructive behavior.

Kirish. Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga qo'yildigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma'naviy (fan, adabiyot, san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy ma'naviy-ruhiy qadriyatlar) jihatdan ta'sir etadi. Moddiy va ma'naviy madaniyatni uning ma'naviy madaniyati ta'sirisiz, inson ongi va fioliyatidan tashqari yaratilmaydi.

Asosiy qism. Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi. Inson biror moddiy boylik yaratara ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasini o'z ongida tasavvur etadi, amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs tashqi olam, voqeа va hodisalami aql, idrok ruhiy holat, ichki kayfiyatlar orqali qabul qilib dishi jarayonida ma'naviy madaniyat tashkil topadi. Yuksak ma'naviy madaniyatli insonda vatanga muhabbat, samimiy do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e'tiqod, imyon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga xalqning ma'naviy merosiga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning negizi hisoblangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy tuzumiga munosabati, turli ma'rifiy-madaniy g'oyalari, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir. Ma'naviy-axloqiy madaniyatning mohiyatini namoyon etuvchi obyekt shaxs hisoblanadi. Shaxs sifatida shakllanadigan o'quchining ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati benihoya katta.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy ma'noda) kishilariga o'xshashlik xohishini tug'diradigan ijobjiy namunaning tarbiyaviy kuchi o'quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar, ko'pincha, ota-onalariga, ma'lum bir ijobjiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o'qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladilar. Turli yoshdagagi bolalarga taqlid qilishga moyillik turlicha bo'ladi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar ijobjiy namunaga ham, salbiy namunaga ham barabararoq taqlid qilaveradi. Buning sababi ularning turmush tajribasining juda kamligi, iroda kuchining niroyatda zaifligi, hissiyotlarining aql-idrokidan ustun turishidadir. Ularda tahlil qilish va harakatlarga tanqidiy ko'z bilan qarab baho berish xislatlari hali shakllanmagan bo'ladi. Bolalar ulg'ayib borgan sari o'z tevarakkat-afrodisiagi katta yoshdagagi kishilarning xatti-harakatlariga tobora tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'ladilar. Shu yoshdagagi bolalar o'z nuqtayi nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarnigina o'zlar uchun namuna deb biladilar va ularga e'tiqod qo'yadilar.

O'quvchilarda tarkib toptiriladigan ma'naviy-axloqiy sifatlar axloqiy ong bilan xatti-harakat o'tasida birlik bo'lishini taqozo qiladi. Buning ma'nosi shuki, haqqoniyligi o'quvchilarga kunma-kun uqtirib borilgan axloqiy-ma'naviy tushunchalar ularning xatti-harakatlarida ham, ular qatnashgan jamoadagi o'zaro munosabatlarda ham qaror topmog'i lozim. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tushunchalari faqat dars jarayonidagina emas, balki kundalik turmushda ham sinovlardan o'tib shakllana boradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida shunday sharoit yaratmoq kerakki, o'quvchilar sabot-metonat, qunt,

tashabbuskorlik, chidam ko'sata oladigan, qiladigan ishlarning jamiyat va vatan uchun zarurligini qalbdan tushunadigan bo'sinlar. O'quvchilarga beriladigan bilimlar majmui, shubhasiz, juda katta tarbiyaviy kuchga egadir. O'quvchilarda chinakam ilmiy dunyoqarash asoslarini yaratishda, to'g'ri hukm yuritish qobiliyatini tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy sifatlarga tayanib ish ko'rildi.

Muhokamalar va natijalar. Jamiyatda yuz berayotgan jiddiy va chuqur o'zgarishlar o'quvchilar shaxsiyatida ham aks etadi. Endi uning ehtiyojlar bilim olish bilangina cheklanmaydi. Turli axborot tizimlari, jumladan, internetning shiddat bilan rivojlanishi boshqa manbalardan ko'plab axborotlarni olish imkonini bermoqda. Bu manbalardan olinayotgan axborotlar har doim ham o'quvchi ma'naviyatiga ijobji ta'sir qilavermaydi. Ular orasida yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazadigan, buzg'unchi va vayronkor g'oyalarni tashuvchilari ham anchagina. Shuni hisobga olinsa, o'quvchini ma'naviy jihatdan yuksaltirish eng muhim vazifalardan biriga aylanayotgani ayon bo'ladi. Bayon qilingan mana shu holatlar o'quvchining ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga qaratilgan dastur ishlab chiqish zaruratini tug'diradi. Mazkur dasturni ishlab chiqish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashtirishni o'quv jarayonining maqsad va vositalarini o'quvchi va o'qituvchilarning ongini o'zgartirmay turib amalga oshirish mumkin emas, degan fikrga asoslanadi.

Dastur o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy o'sishi uchun eng samarali usullarni, vosita, maqsad va vazifalarni bosqichma-boskich anglash va amalga oshirishga asoslangan. Dastuming maqsadi o'quvchilarda har qanday ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, o'zi qabul qilgan qaror asosida o'zini namoyon qilish qobiliyatini takomillashtirishdan iborat.

O'quv faoliyati jarayonida ma'naviy-axloqiy rivojlanish dasturi

Maqsadlar	Vazifalar	Usullar	Vositalar	
1-bosqich				
Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlanirish	Nutqni rivojlanirish; Harakatlar rejasini tuzish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlanirish. Tushunchalarni shakllantirish va rivojlanirish.	Ritorik mashqlar. Tayanch sxemalami tuzish. Ilmiy tushunchalarni shakllantirish va tahlil qilish.	Pretmet bo'yicha o'quv materiallari.	
2-bosqich	Man'aviy-axloqiy qadriyatlar asosida xulq-atvorning konstruktiv motivasiyasini rivojlanirish.	Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shaxsiy xulosa qilish ko'nikmasini shakllantirish. Shaxsiy fikrini dalillash ko'nikmasini rivojlanirish. Ma'naviy-axloqiy xulq-atvorning konstruktiv motivlarini shakllantirish.	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish. Subbat, munozara, disputlar.	Nazariy mashg'ulotlar.
3-bosqich	Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida o'zligini namoyon qilish qobi'yaliyatini rivojlanirish.	-xulq-atvorning ma'anviy-axloqiy motivlarini ro'yobga chiqarish ko'nikmasini shakllantirish; - konstruktiv xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha mashqlar. - ma'naviy-axloqiy rivojlanish jarayoni refleksiyasi; - iroda sifatlarini rivojlanirish zaruratini anglash.	- shaxsiy o'sishning individual dasturini tuzish; - xizmat o'yinlari, trening elementlari; - o'zini-o'zi tahlil qilish bo'yicha kundalik yuritish (amaldagi xulq-atvorni ma'naviy-axloqiy rivojlanish maqsadlari, vazifalariga qiyoslab tahlil qilish.)	Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlar

Mazkur dasturning dastlabki bosqichida o'quvchilardagi man'aviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun maksimal darajada ko'maklashadigan sharoit yaratish zarur. O'smirlik davrida kognitiv jarayonlar, eng avvalo, tafakkurning shakllanishi yakunlanadi. Shu davrda

tafakkur nutq bilan uzil-kesil birikadi, buning natijasida tafakkur va boshqa bilish jarayonlarini tashkil qilishda asosiy vosita bo'lgan ichki nutq shakllanishi yakunlanadi. Shu jarayonda to'laqonli nazariy tafakkur shakllanadi. Shu bilan birga shaxs ilmiy dunyoqarashining asosi bo'lgan ilmiy tushunchalarning shakllanishi faoliy davom etadi. Shu davrda mulohaza mantiqiga asoslangan tushunchalar bilan qilinadigan operatsiyalar va aqliy harakatlar shakllari uzil-kesil tugallanadi. Bu jarayonlarning barchasini uch yo'nalish bo'yicha tezlatish mukmin: tafakkurning tushunchalar tarkibi, nutq intellekti va harakatning ichki rejasи. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy qadriyatlар haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va kengaytirish bo'yicha vazifalar nutq intellekti, harakatning ichki rejasи va tushunchalar apparatini rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat tarbiyasi barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy omillardan biri bo'lib, shaxsni har tomonloma garmonik tarbiyalashga zamin yaratadi. Biroq, insonni kamolga yetkazishda har bir shaxsga o'ziga xos munosabatda bo'lish ta'llim-tarbiyaning asosiy tamoyillari ekanligini unutmashligimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – В. 14.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
3. Ананьев Б.Г. О психологических аспектах социализации. – Минск: Изд-во "Университетское", 2001.-321 с.
4. Бесова А.К. Духовно-нравственное воспитание личности в процессе литературного образования учащихся: Дис. ...канд. психол. наук. - М., 2000. - 176 с.